TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

95 yilligiga bag'ishlanadi

“O‘ZBEKISTON-2030” STRATEGIYASI: GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI” FORUMI

“MOLIYA”
Ilmiy elektron jurnal
(2-maxsus son)

· Pul-kredit siyosati
· Investitsion jozibadorlikni oshirish
· Tashabbusli budjet
· Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish
· MHXS(IFRS) transformatsiyasi
· Iqtisodiy tahlilni raqamlashtirish
· AXS transformatsiyasi

TOSHKENT–2026

UO‘K: 657:330.341:502.131.1(575.1)(06)
KBK: 65.053+20.18
I-35

“Buxgalteriya hisobi tizimida yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish standartlari” mavzusidagi II ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: “Ilm-ma’rifat” nashriyoti, 2026. – 448 b.

Mazkur ilmiy maqolalar to‘plami “O‘zbekiston–2030” strategiyasi: global va milliy iqtisodiyot trendlari forumi doirasida tayyorlangan bo‘lib, unda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, moliya tizimini takomillashtirish hamda zamonaviy iqtisodiy boshqaruv mexanizmlarini joriy etishning dolzarb ilmiy-nazariy va amaliy masalalari yoritilgan.

To‘plamda pul-kredit siyosatini takomillashtirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, tashabbusli budjetlashtirish mexanizmlarini rivojlantirish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS/IFRS) o‘tish, iqtisodiy tahlil jarayonlarini raqamlashtirish hamda audit faoliyatini xalqaro audit standartlari (AXS) talablariga muvofiqlashtirish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar jamlangan.

Maqolalarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va moliyaviy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari, pul-kredit va budjet siyosatining zamonaviy mexanizmlari, investitsiya muhitini yaxshilash omillari, iqtisodiy shaffoflikni ta’minlash hamda yashirin iqtisodiyot ko‘lamini kamaytirish yo‘llari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot va audit tizimlarini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish, raqamli texnologiyalar va zamonaviy iqtisodiy tahlil vositalaridan samarali foydalanish imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratilgan.

To‘plamda ilgari surilgan ilmiy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalar “O‘zbekiston–2030” strategiyasida belgilangan iqtisodiy taraqqiyot maqsadlariga erishish, moliya tizimining barqarorligi va shaffofligini mustahkamlash, investitsiyaviy faollikni rag‘batlantirish hamda iqtisodiy boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan.

To‘plam iqtisodchi olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar va talabalar, moliya, bank, buxgalteriya hisobi va audit sohasi mutaxassislari, davlat boshqaruvi organlari vakillari hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

ISBN: 978-9910-4522-1-5

© Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2026-yil.

Bosh muharrir:
A.A.Karimov
Bosh muharrir o‘rinbosari:
G‘.D.Tashmanov
Sahifalovchi va dizayner:
Oloviddin Sobir o‘g‘li
Texnik muharrir:
K.Rasulova

Tahririyat Kengashi raisi:
T.Z.Teshabayev

Tahririyat Kengashi a'zolari:
G.Q.Abduraxmanova iqtisodiyot fanlari doktori, professor
N.X.Xaydarov iqtisodiyot fanlari doktori, professor
T.S.Malikov iqtisodiyot fanlari doktori, professor
E.G‘.Nabiyev iqtisodiyot fanlari doktori, professor
G.N.Axunova iqtisodiyot fanlari doktori, professor
K.B.O‘razov iqtisodiyot fanlari doktori, professor
B.E.Toshmurodova iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sh.Z.Abdullayeva iqtisodiyot fanlari doktori, professor
A.Z.Avloqulov iqtisodiyot fanlari doktori, professor
J.I.Karimqulov iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sh.A.Allayarov iqtisodiyot fanlari doktori, professor
F.T.Muxamedov iqtisodiyot fanlari doktori, professor
D.R.Rustamov iqtisodiyot fanlari doktori, professor
X.M.Shennayev iqtisodiyot fanlari doktori, professor
M.A.Ikramov iqtisodiyot fanlari doktori, professor
I.K.Ochilov iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
M.M.Tulaxodjayeva iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Z.A.Sagdullayeva iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
X.Qobulov iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
I.G‘.Kenjayev iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
D.A.Mirzayev iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Asif Mahbub Karim Malayziya, Binary menejment va tadbirkorlik universiteti professori
Adriana Grigorescu Ruminiya, Siyosiy tadqiqotlar va davlat boshqaruvi milliy universiteti professori
Y.B.Maley Belarus, Polotsk davlat universiteti dotsenti
Elcin Aykac Alp Turkiya, Istanbul Tijorat universiteti professori
Tae-Hyoung Mun Janubiy Koreya, Mokwon universiteti professori
N.K.Muravitskaya Rossiya Federatsiyasi Hukumati huzuridagi Moliya universiteti professori
K.Taygashinova Qozog‘iston, Almati iqtisodiy-gumanitar universiteti professori

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

GLOBALLASHUV SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH STRATEGIYASINING TRANSFORMATSIYASI 10
Jamshid Abduxakimovich Xodjayev

IQTISODIY TARAQQIYOTNI TA’MINLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI — YANGI O‘ZBEKISTON MODELI 16
Teshaboyev To‘lqin Zakirovich

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MODDIY QIYMATLIKLAR HISOBINI XALQARO YONDASHUVLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 23
Sindarov Sherzod Egamberdiyevich

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI 30
Karimova Komila Daniyarovna

O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 36
Rajabov Sherzod Umurzoqovich

FANLARARO VA MUTAXASSISLIKLARARO SINTEZ: YOXUD SUD-BUXGALTERIYA EKSPERTIZASINI O‘QUV FANI VA MUTAXASSISLIK SIFATIDA SHAKLLANTIRISH XUSUSIDA 42
Abdusalomova Nodira Baxodirovna, Dusmuratov Radjapbay Davlatbayevich

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR MOLIYAVIY HOLATI TAHLILI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-AMALIY YO‘NALISHLARI 50
Mavlanov Normo‘min Normamatovich

ZAMONAVIY INVESTITSIYA SIYOSATINING DOLZARB MUAMMOLARI: MOLIYALASHTIRISH TARKIBI, SAMARADORLIK VA INSON KAPITALI OMILI 53
N.G‘. Karimov

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ 59
Сагдиллаева З. А.

INTERNATIONAL EXPERIENCE OF GREEN FINANCE AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN 63
Nazarova Rano Rustamovna, Musayeva Gavxar Axmatjon kizi

TIJORAT BANKLARIDA AHOLI OMONATLARINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISH 69
Xakimov Zohid Norbo‘tayevich

DAVLAT XARIDLARINI BOSHQARISHDA SHAFFOFLIK VA SAMARADORLIKNI TA’MINLASH MEXANIZMLARI 77
Kurbonbekov Sardor Ravshanovich

DAROMAD VA TUG‘ILISH O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK: DEMOGRAFIK PARADOKSNING AMALIY TAHLILI 84
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, Bahriddinova Muazzam Azam qizi

XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARI (MHXS) ASOSIDA KORXONALAR MOLIYAVIY HISOBOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI 88
Karimov Akrom Abbasovich, Mamajonov Akromjon Turg‘unovich

KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISHNING AXBOROT MANBALARI 92
Rizayev Nurbek Kadirovich, Umarova Zumrad Nizomiddin qizi, Xo‘jabekov Nizomiddin

MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINI AMALIYOTGA QO‘LLASHDA SUN’IY INTELLEKT IMKONIYATLARINI BUXGALTERIYA HISOBINING DASTURIY TA’MINOTLARI BILAN UYG‘UNLASHTIRISH MUAMMOLARI 98
Ochilov Ilyos Keldiyorovich

УЧЕТ ФОРМИРОВАНИЯ И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ 104
Абдибаева Тамара

DEPRECIATION OF LONG-TERM ASSETS AND ITS IMPACT ON FINANCIAL STATEMENTS AND TAXATION IN ACCORDANCE WITH IFRS 108
Golib D. Tashmanov

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O‘TISH MASALALARI 114
Kurbanov Ziyat Niyazovich

KORXONADA MATERIAL ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI BOSHQARISH HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 119
Xusinov Ibragim Ismoilovich

ТРАНСФОРМАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ: РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ФОРМИРОВАНИИ И РАСКРЫТИИ ESG-ИНФОРМАЦИИ 123
Э. М. Баба́ширинова

МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ТРАНСФОРМАЦИИ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЁТНОСТИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ ПО МСФО В УСЛОВИЯХ ОТРАСЛЕВЫХ РЕФОРМ 128
Губайдуллин Абдулла Ильясович, Абдуллаева Айсель Мамудовна

INFLYATSIYA BARQARORLIGI VA O‘ZBEKISTONNING INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI 134
Jahongir Bahodirov

JORIY AKTIVLAR HISOBINI YURITISHDA XALQARO TAJRIBA VA UNI QO‘LLASH MASALALARI 141
Bobobekov Baxrom Kaxxarovich, Rizayev Nurbek Kadirovich

IMPROVING THE ACCOUNTING OF NON-FINANCIAL ASSETS IN PUBLIC MEDICAL INSTITUTIONS 146
Iskanov Kholjigit Nurkosimovich

O‘ZBEKISTONDA “YASHIL LOYIHA”LARNI MOLIYALASHTIRISH VA “YASHIL KREDIT”LARNI JORIY ETISH MASALALARI 154
M.Q. Maxmudova

IPO ORQALI TIJORAT BANKLARINING UZOQ MUDDATLI RESURSLARI VA LIKVIDLIGINI MUSTAHKAMLASH 160
Tillayev Xurshidjon Sulaymon o‘g‘li

AUDITDA TASHQI TASDIQLAR VA ICHKI NAZORAT TIZIMI 165
Akromov Shohrux Shuhrat o‘g‘li

METHODOLOGICAL DEFICIENCIES AND THE INTEGRATION OF GREEN ACCOUNTING IN UZBEKISTAN’S ENVIRONMENTAL AUDITS: AN OPERATIONAL ANALYSIS 169
Temirkhanova Mutabar Jurayevna, Mansurov Abdumavlon Abduazim ugli

ИНВЕСТИЦИИ В ИНИЦИАТИВЫ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ПРИБЫЛЬ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СУБЪЕКТОВ 177
Гафурова А. Ф.

МНОГОКРИТЕРИАЛЬНАЯ ОЦЕНКА ВОЗМОЖНОСТЕЙ АДАПТАЦИИ ЗАРУБЕЖНОГО ИННОВАЦИОННОГО ОПЫТА В ХИМИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА 184
Дехканова Наргиза Шарифовна

KORXONALARDA INVESTITSIYA QARORLARINI QABUL QILISH, ULARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING EKONOMETRIK TAHLILI 191
Rixsimbayev O.Q.

TO‘LA TIZIMLI BALIQCHILIK XO‘JALIKLARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI 198
Aitimbetov Amirbek Qoishibekovich

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЁТА БЕЗВОЗМЕЗДНОЙ ПЕРЕДАЧИ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ НЕФТЕГАЗОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ 202
МАХКАМОВА САИДА ГАЙРАТОВНА

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО КРИЗИС-МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ 208
Маннапова Раъно Аброровна

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

ГАРМОНИЗАЦИЯ СТАНДАРТОВ БЮДЖЕТНОГО УЧЁТА УЗБЕКИСТАНА С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ: НЕОБХОДИМОСТЬ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ 217
Абдужалилова Дилноз Абдусатторовна

MAHSULOT TANNARXI HISOBI VA AUDITINI INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 224
Djumanov Saitmurod Alibekovich

TIJORAT BANKLARI DAROMAD BAZASINI SHAKLLANTIRISH VA BOSHQARISHNING METODOLOGIK VA AMALIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI 229
Togayev Salim Sobirovich

ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ ФИНАНСАМИ И СОЦИАЛЬНОЕ РАВЕНСТВО В УЗБЕКИСТАНЕ 235
Зокиржонов Мухаммадсодик Равшанбек угли

O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT VA LIKVIDLILIK RISKLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI 246
Sattorova Nasiba G‘anijon qizi

AUDITORLIK ISHI SIFATINI BAHOLASHDA XALQARO STANDARTLARDAN FOYDALANISH 252
Qo‘shmatov Otaxon Qurbonaliyevich

BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA DAROMADLAR VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIKNING NAZARIY MODELI 262
Shomurodov Tohir Boymurod o‘g‘li

INNOVATSION EKOTIZIMNING TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGI VA IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA’SIRI 268
Kuziyeva Gulnoza Rashidovna

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DAROMAD VA XARAJATLAR BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 274
Kuvatova Dinara Anvarovna

ЗЕЛЕНАЯ БУХГАЛТЕРИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ 279
Камолова Феруза Кахрамоновна

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA JORIY AKTIVLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH 287
Normatova Gulmira Xayrullayevna

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING SHUBHALI DEBITORLIK QARZLARI BO‘YICHA REZERV TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH 291
Xolpulotov Rustam O‘ktamovich

TIJORAT BANKLARINING FOND BOZORIDAGI ISHTIROKINI YANADA OSHIRISH VA ULARNING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH 300
Abdukayumov Abduvaxid Abduvasikovich

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ НЕОДНОРОДНОСТЬ КАК БАРЬЕР ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ БАНКОВСКОГО СЕКТОРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА 307
Турсунова Муниса Хужаёр кизи

O‘ZBEKISTONDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O‘TISH JARAYONI: HOZIRGI HOLATI VA TAHLILI 313
Rayimjonova Gulnoza Abduraimovna

ESG-АУДИТ — НОВЫЙ УРОВЕНЬ КОНТРОЛЯ КАЧЕСТВА ТРАДИЦИОННЫХ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ АО 319
Утегенова Сарбиназ Турдымуратовна

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH ORQALI UNING NATIJADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI (FARG‘ONA VILOYATI EMPIRIK MA’LUMOTLARI MISOLIDA) 328
Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o‘g‘li

MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA’SIRI (XITOY TAJRIBASI) 334
Iskandarova D.

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY TRANSFORMATSIYANI CHUQURLASHTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING O‘RNI 340
Shodiboyeva Dilzoda Farhodjon qizi

O‘ZBEKISTON–2030 STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDA TIJORAT BANKLARIDA ISLOMIY MOLIYAVIY INSTRUMENTLARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI 345
Sobirova Shahnoza

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЁТА НЕМАТЕРИАЛЬНЫХ АКТИВОВ ПО ДОГОВОРУ МЕНЫ В НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 352
АТАБАЕВА ЗАМИРАХОН АБДУЖАЛИЛОВНА

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI SUG‘URTA TASHKILOTLARI BUXGALTERIYA HISOBINI BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 359
O‘smonjonov Muxammadisxoq O‘tkirbek o‘g‘li

BUXGALTERIYA BALANSINI XALQARO STANDARTLARGA TRANSFORMATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH 367
Xolmatova Nodiraxon Quddusovna

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН 376
Абдусатторова Шахида Абуталиповна

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 380
Rasulova Zilola Abdig‘opparovna

A PROPORTIONATE FRAMEWORK FOR FORMING SUSTAINABILITY-RELATED FINANCIAL INFORMATION IN SMALL BUSINESSES: INTEGRATING IFRS S1, IFRS S2 AND THE IFRS FOR SMEs ACCOUNTING STANDARD 388
Isomuxamedov Akbarjon Boxodir o‘g‘li

ASOSIY VOSITALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARI MISOLIDA 398
Azzamova Dinora Xolmumin qizi

MOLIYAVIY HISOBOT SHAFFOFLIGINI TA’MINLASHDA MAJBURIYATLAR AUDITINING O‘RNI VA AHAMIYATI 406
Obidxonov Xumoyun Xamidxon o‘g‘li

ISLOM MOLIYASINI JORIY ETISHDA XORIJIY TAJRIBA 415
Davlatova Sitorabonu Uyg‘un qizi

TIJORAT BANKLARIDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING MOLIYAVIY VA BUDJETGA TA’SIRI 420
Mirzaxmedova A. A.

TO‘LOV TIZIMINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH: UCH O‘LCHAMLI BAHOLASH RAMKASI, ALMASHUVLAR TAHLILI VA O‘ZBEKISTON UCHUN USTUVOR YO‘NALISHLAR 426
Toshniyozov Sherali Kamoliddinovich

O‘RTA MAXSUS BILIM YURTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI 434
Ro‘ziboyev Oybek Baxromovich

MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI 438
Burhonova Gulnoza Kadam qizi, Abdullayev Habibullo

“O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA’MINLASHDA INVESTITSION MUHITNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 444
Irisqulova Munisa Akmal qizi

KOREYA FOND BOZORIDA TINCH VA NOTINCH SHAROITLARDA RISKKA DUCHOR BO‘LGAN QIYMAT (VaR) BASHORATINING NAMUNADAN TASHQARI SAMARADORLIGI 452
Ortig‘aliyeva Gulchehraxon Farhodjon qizi

O‘ZBEKISTONNING JSTGA QO‘SHILISHINING IQTISODIY OQIBATLARI: IMKONIYATLAR VA POTENSIAL XATARLAR 458
Abdullaxo‘jayev Kamolxon Akmaljon o‘g‘li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINI AMALIYOTGA QO‘LLASHDA SUN’IY INTELLEKT IMKONIYATLARINI BUXGALTERIYA HISOBINING DASTURIY TA’MINOTLARI BILAN UYG‘UNLASHTIRISH MUAMMOLARI

Ochilov Ilyos Keldiyorovich
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Moliyaviy hisob va hisobot” kafedrasi professori
E-mail: i.ochilov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-3350-0891

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt taraqqiyoti sharoitida buxgalteriya hisobini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida yuritish hamda SAP ERP tizimi bilan uyg‘unlashtirish muammolari tahlil qilinadi. Buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari o‘rtasidagi tafovutlar, texnik cheklovlar, kadrlar malakasi, moliyaviy omillar hamda sun’iy intellekt integratsiyasining samaradorligi bo‘yicha amaliy natijalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot; sun’iy intellekt; MHXS; SAP (Systems, Applications, and Products in Data Processing); ERP (Enterprise Resource Planning); moliyaviy hisobot; buxgalteriya hisobi; IFRS; avtomatlashtirish; integratsiya; moliyaviy shaffoflik.

Abstract: This article analyzes the challenges of maintaining accounting in accordance with the requirements of International Financial Reporting Standards (IFRS) and integrating it with the SAP ERP system in the context of the development of the digital economy and artificial intelligence. The study presents practical findings on the differences between national and international accounting standards, technical limitations, personnel qualifications, financial factors, and the effectiveness of artificial intelligence integration.

Key words: digital economy; artificial intelligence; IFRS; SAP (Systems, Applications, and Products in Data Processing); ERP (Enterprise Resource Planning); financial reporting; accounting; automation; integration; financial transparency.

Аннотация: В статье анализируются проблемы ведения бухгалтерского учёта в соответствии с требованиями Международных стандартов финансовой отчётности (МСФО) и его интеграции с системой SAP ERP в условиях развития цифровой экономики и искусственного интеллекта. Представлены практические результаты, связанные с различиями между национальными и международными стандартами бухгалтерского учёта, техническими ограничениями, квалификацией кадров, финансовыми факторами, а также эффективностью интеграции искусственного интеллекта.

Ключевые слова: цифровая экономика; искусственный интеллект; МСФО; SAP (Systems, Applications, and Products in Data Processing); ERP (Enterprise Resource Planning); финансовая отчётность; бухгалтерский учёт; автоматизация; интеграция; финансовая прозрачность.

KIRISH

So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning kengayishi va sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi buxgalteriya hisobi jarayonlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda [1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni

keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori [15], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni [16] hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida [17] belgilangan vazifalardan kelib chiqib, sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish bo‘yicha quyidagi maqsadlar belgilangan: Hukumatning sun’iy intellektga tayyorlik indeksida (Government AI Readiness Index) O‘zbekiston Respublikasining birinchi 50 ta o‘rindagi davlatlar qatoriga kirishiga erishish; sun’iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmini 1,5 milliard AQSh dollariga yetkazish; Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida sun’iy intellekt asosida ko‘rsatilayotgan xizmatlar ulushini 10 foizga yetkazish.

O‘zbekistonda MHXSga (IFRS) bosqichma-bosqich o‘tish investitsiya muhitini yaxshilash, moliyaviy hisobot shaffofligini oshirish hamda xalqaro bozorlarda ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda [2], [6]. Shu bilan birga, SAP ERP (enterprise resource planning) tizimlarini milliy va xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish jarayonida texnik konfiguratsiya muammolari, kadrlar malakasi yetishmasligi, normativ bazadagi tafovutlar kabi qator cheklovlar yuzaga kelmoqda [4], [8]. MHXS talablariga moslashgan avtomatlashtirilgan hisobot tizimlari SI imkoniyatlari bilan birgalikda moliyaviy ma’lumotlar ishonchliligini oshirishi va qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirishi mumkin [10], [11]. Ushbu tadqiqot SAP ERP konfiguratsiyasi va SI integratsiyasi orqali milliy buxgalteriya amaliyotini optimallashtirish yo‘llarini tizimli tahlil qilishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi, MHXS va SAP ERP tizimlarini sun’iy intellekt bilan integratsiyalash masalalari ko‘plab tadqiqotlarda yoritilgan. Parimi [1] va Pokala [3] mashinaviy o‘qitishning SAP muhitida moliyaviy hisobotlar, nazorat va xatolarni aniqlash samaradorligini oshirishini ko‘rsatadi. Artemenkov va Ganiev [2], Khalilov [6] hamda Aripova [8] MHXSni O‘zbekiston amaliyotiga joriy etishdagi muammolarni tahlil qilgan. KPMG [4], PwC [5], [13] va SAP SE [9], [10] materiallarida ERP, raqamlashtirish, avtomatlashtirish va sun’iy intellekt vositalarining moliyaviy boshqaruvdagi o‘rni ochib berilgan. McKinsey [11], Jahon banki [7] va UNCTAD [14] esa raqamli texnologiyalarning tahlil, prognozlash va boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlashdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, MHXS, SAP ERP va sun’iy intellektni O‘zbekiston buxgalteriya amaliyotida kompleks uyg‘unlashtirish masalalari yetarlicha o‘rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot O‘zbekistondagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar misolida MHXSga o‘tish va SAP ERP tizimini uyg‘unlashtirish jarayonlarini o‘rganish uchun sifatli va miqdoriy usullardan foydalanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi jarayonlarini MHXS talablari asosida avtomatlashtirishning afzalliklari va muammolarini aniqlash. Bu jarayonda SAP ERP tizimining FI (Financial Accounting) va CO (Controlling) modullari hamda SI asosidagi qo‘shimcha dasturlar o‘rganildi [3], [5].

Milliy va xalqaro me’yoriy hujjatlar: O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, MHXS (IFRS 1, IAS 36, IFRS 15) [2], [6]. – 20 ta yirik korxona (bank, energetika, ishlab chiqarish)da joriy etilgan SAP ERP tizimi konfiguratsiya hujjatlari va foydalanuvchi hisobotlari. – Jahon banki va BMTning raqamli iqtisodiyot bo‘yicha statistik hisobotlari [7; 14]. – Ekspert intervyulari: SAP konfiguratsiya mutaxassislari, auditorlar va buxgalterlar bilan yarim strukturalangan suhbatlar [8].

Tadqiqot usullari. – Qiyosiy tahlil: MHXS va milliy buxgalteriya standartlari o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlash [2], [6]. – Texnik audit: SAP ERP konfiguratsiyasidagi “parallel ledger” va “document splitting” sozlamalarini tahlil qilish [9]. – SI texnologiyalarini sinovdan o‘tkazish: mashina o‘qitish asosidagi anomaliyalarni aniqlash (anomaly detection) moduli tajriba sifatida ishga tushirildi [10]. – Miqdoriy tahlil: SPSS va R dasturlarida korrelyatsiya va regressiya modellarini qo‘llash orqali SI integratsiyasining samaradorligi baholandi [11].

TAHLIL VA NATIJALAR

Mahalliy va xalqaro buxgalteriya dasturlari — bugungi kunda buxgalteriya hisobini yuritish uchun nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda qo‘llaniladigan turli xil dasturiy mahsulotlar mavjud. Mahalliy dasturlar odatda milliy qonunchilik, soliq tizimi va hisobot shakllariga moslashtirilgan bo‘lib, ichki bozor ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltiriladi. Xalqaro dasturiy mahsulotlar esa ko‘p mamlakatli kompaniyalar faoliyati uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ular turli standartlar, jumladan, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga mos ishlash imkonini beradi. Bu holat buxgalteriya hisobining globallashuvi va axborot tizimlarining standartlashuvi jarayonini yaqqol namoyon etadi.

1-jadval. An’anaviy buxgalteriya hisobi va uni takomillashtirish imkoniyatlari.[1]

Muammolar:	1. Moliyaviy ma’lumotlar hajmining keskin oshishi; 2. Qo‘lda ishlash: sekinlik va inson xatosi; 3. Qaror qabul qilish uchun real vaqtda axborot manbalarining yetishmasligi; 4. Nazorat va shaffoflik talablarining kuchayishi


SAP ERP tizimini uyg‘unlashtirish moliya, logistika, ishlab chiqarish va mahsulotlarni sotish jarayonlarini yagona axborot muhitida birlashtirish, real vaqt rejimida moliyaviy nazoratni amalga oshirish hamda boshqaruv hisobi va tahlili bilan integratsiyani ta’minlash imkonini beradi. Natijada strategik boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta’minlash sifati oshadi.

So‘nggi yillarda bulutli texnologiyalarga asoslangan buxgalteriya tizimlari tobora keng tarqalmoqda, bu moslashuvchanlik va xarajatlarni kamaytirishga olib kelmoqda. Ushbu yechimlarning asosiy ustunligi — ularning yuqori darajadagi moslashuvchanligidir. Ya’ni, korxona o‘z ehtiyojiga qarab tizim imkoniyatlarini kengaytirishi yoki qisqartirishi mumkin. Bundan tashqari, bulutli yechimlar qimmat serverlar va murakkab infratuzilma xarid qilish zaruratini kamaytiradi. Natijada, axborot tizimlarini joriy etish va qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq xarajatlar sezilarli darajada qisqaradi. Bu holat, ayniqsa, kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun muhim ahamiyatga ega.

Buxgalteriya hisobi konsepsiyasida masofadan ishlash imkoniyati — bulutli va zamonaviy axborot tizimlarining yana bir muhim afzalligi — masofadan turib ishlash imkoniyatining yaratilishidir. Ya’ni, buxgalterlar va menejerlar moliyaviy ma’lumotlarga ofisda bo‘lmasdan ham, internet orqali istalgan joydan kirishlari mumkin. Bu holat ish jarayonlarini yanada moslashuvchan qiladi, xodimlar unumdorligini oshiradi va favqulodda vaziyatlarda ham korxonaning moliyaviy boshqaruvini uzluksiz davom ettirish imkonini beradi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda masofaviy ish shakllarining kengayishi bu imkoniyatning naqadar muhim ekanini ko‘rsatdi.

Raqamli buxgalteriya konsepsiyasida axborot xavfsizligi va standartlashtirish bilan bog‘liq yangi muammolar yuzaga kelmoqda.

Eng asosiy masalalardan biri — axborot xavfsizligini ta’minlashdir. Moliyaviy ma’lumotlar strategik ahamiyatga ega bo‘lgani sababli, ularni himoyalash masalasi har doim ustuvor bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, turli tizimlar o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvi va hisobotlarni yagona standartlar asosida yuritish, ya’ni standartlashtirish muammosi ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, zamonaviy dasturiy yechimlarni joriy etishda nafaqat texnik, balki tashkiliy va me’yoriy masalalarga ham alohida e’tibor qaratish zarur.



1-rasm. Raqamli buxgalteriya konsepsiyasida sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari[2]

1 Manba: muallif ishlanmasi.
2 Manba: muallif ishlanmasi.

Tadbirkorlik subyektlarida buxgalteriya hisobini raqamli platformalarga transformatsiya qilish uning an’anaviy hisob-kitob funksiyalaridan kompleks axborot tizimi sifatidagi funksiyalariga o‘tishini ta’minlaydi.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini avtomatlashtirish — axborotlardan foydalanish tezligi va aniqligini oshiradi. Tahlil va prognoz funksiyalari kuchaymoqda — dasturiy ta’minotlar nafaqat ma’lumotlarni saqlaydi, balki ularni turli kesimlarda tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Dasturiy ta’minot — asosiy infratuzilma hisoblanib, aynan shu dasturiy ta’minot infratuzilmasi orqali ma’lumotlar yig‘iladi, saqlanadi, qayta ishlanadi va qarorlar qabul qilinib, moliyaviy hisobotlar foydalanuvchilarga taqdim etiladi.

Buxgalteriya hisobining dasturiy ta’minotlari:

1C Buxgalteriya

1 – UZ Buxgalteriya

SAP ERP

BEM — Buxgalterga Elektron Madad

Onlayn ombor tizimi «E-OMBOR» va boshqa elektron dasturiy ta’minot platformalari.

Amaliyotda 1C tizimi, asosan, buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishga yo‘naltirilgan dasturiy yechim sifatida qo‘llaniladi. SAP ERP esa moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi, logistika, ishlab chiqarish va boshqa biznes jarayonlarini yagona axborot tizimida integratsiyalash imkonini beruvchi korporativ boshqaruv platformasi hisoblanadi. 1C tizimi ayrim korxonalar uchun nisbatan kam xarajat talab qiluvchi yechim bo‘lishi mumkin, SAP ERPni joriy etish esa, odatda, kattaroq moliyaviy, texnik va tashkiliy resurslarni talab qiladi.

“SAP” — kompaniyalar axborot muhitida axborot tizimlari o‘rtasidagi nomuvofiqliklarni kamaytirishga ko‘maklashadigan, barcha biznes jarayonlari va dasturlarini qamrab oluvchi yangi avlod platformasi hisoblanadi. Shuningdek, u kompaniyalarning barcha resurslari integratsiyalashishi uchun yaxlit muhitni tez va samarali yaratishga yordam berish uchun mo‘ljallangan.

SAP ERP ishlab chiqarishni rejalashtirish, texnologik jarayonlardagi nomuvofiqliklarni hisobga olish, hisob-kitoblarni avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun xaridlarni o‘z vaqtida rejalashtirish bo‘yicha keng funksional imkoniyatlarga ega.

SAP ERPda integratsiyalashgan boshqaruv konsepsiyasini qo‘llash:

- real vaqt rejimida moliyaviy nazorat imkoniyati;
- boshqaruv hisobi va tahlil bilan integratsiya imkoniyati;
- natija: strategik qarorlar sifati oshadi.

Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar integratsiyasi — kelajakda buxgalteriya axborot tizimlarining rivojlanishi, avvalo, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar texnologiyalarining chuqur integratsiyasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bugungi kunda korxonalar faoliyati natijasida juda katta hajmdagi moliyaviy va operatsion ma’lumotlar shakllanmoqda. Ushbu ma’lumotlarni an’anaviy usullar bilan qayta ishlash tobora qiyinlashib bormoqda. Sun’iy intellekt esa aynan shu katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish, yashirin qonuniyatlarni aniqlash va murakkab bog‘liqliklarni ochib berish imkonini beradi. Natijada, buxgalteriya hisobi faqat hisobot tuzuvchi tizimdan intellektual tahlil platformasiga aylanishi kutilmoqda.

Prognozlovchi va tavsiya beruvchi tizimlar — zamonaviy axborot tizimlarining rivojlanishidagi navbatdagi bosqich — bu prognozlovchi va tavsiya beruvchi tizimlarning keng joriy etilishidir. Bunday tizimlar o‘tgan davr ma’lumotlari asosida kelajakdagi moliyaviy holatni bashorat qilish va boshqaruv uchun optimal variantlarni taklif etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, tizim pul oqimlari bo‘yicha ehtimoliy muammolarni oldindan ko‘rsatishi yoki xarajatlarni optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar berishi mumkin. Bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini yanada ilmiy asoslangan va tizimli qiladi.

Raqamli buxgalteriya konsepsiyasida kelajakdagi buxgalterning roli tahlilchi va maslahatchi sifatida — axborot tizimlari va sun’iy intellektning rivojlanishi buxgalter kasbining mazmunini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Avvallari buxgalterning asosiy vazifasi ma’lumotlarni kiritish va hisob-kitoblarni yuritish bo‘lgan bo‘lsa, kelajakda bu funksiyalar tobora ko‘proq avtomatlashtiriladi. Natijada, buxgalterning roli tahlilchi va maslahatchi sifatida kuchayadi. Ya’ni, u tayyor ma’lumotlar asosida moliyaviy holatni tahlil qiladi, risklarni baholaydi va rahbariyatga asosli tavsiyalar beradi. Bu esa buxgalter kasbining professional darajasini yanada yuqori bosqichga olib chiqadi.

Raqamli buxgalteriya konsepsiyasi — yuqorida qayd etilgan barcha jarayonlar yakunda “raqamli buxgalteriya” konsepsiyasining shakllanishiga olib keladi. Bu konsepsiya buxgalteriya hisobining to‘liq raqamlashtirilgan, integratsiyalashgan va intellektual axborot tizimi sifatida faoliyat yuritishini nazarda tutadi. Raqamli buxgalteriya sharoitida ma’lumotlar real vaqt rejimida shakllanadi, tahlil qilinadi va boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlash uchun foydalaniladi. Shu sababli, kelajakda buxgalteriya hisobi nafaqat moliyaviy nazorat vositasi, balki korxonaning strategik rivojlanishini ta’minlovchi muhim axborot platformasiga aylanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1C, SAP va boshqa tizimlar buxgalteriya hisobini sezilarli darajada o‘zgartirdi — bugungi kunda 1C, SAP va boshqa zamonaviy axborot tizimlari buxgalteriya hisobining tashkil etilishi va yuritilishiga sezilarli o‘zgarishlar kiritdi. Agar avvallari buxgalteriya asosan qo‘lda yoki qisman avtomatlashtirilgan vositalar orqali yuritilgan bo‘lsa, hozirda u to‘liq raqamlashtirilgan va integratsiyalashgan axborot tizimiga aylanib bormoqda. Bu tizimlar nafaqat hisob-kitob jarayonlarini tezlashtirdi, balki buxgalteriya hisobining mazmunini ham boyitdi, uni boshqaruv va tahlil jarayonlari bilan uzviy bog‘lab qo‘ydi. Shu ma’noda, ularning ta’siri buxgalteriya hisobining butun konsepsiyasini o‘zgartirdi, deb aytish mumkin.

Raqamli buxgalteriya konsepsiyasining sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar integratsiyasida hisob texnik jarayondan strategik boshqaruv vositasiga aylandi — zamonaviy axborot tizimlari sharoitida buxgalteriya hisobi endi faqat texnik hisob-kitoblar majmui sifatida qaralmaydi. Aksincha, u korxonaning strategik boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlovchi muhim axborot manbaiga aylanmoqda. Ya’ni, buxgalteriya ma’lumotlari rahbariyat uchun nafaqat “nima bo‘ldi?” degan savolga javob beradi, balki “nima bo‘lishi mumkin?” va “qanday yo‘l tutish kerak?” degan savollarga ham asos yaratmoqda. Bu esa buxgalteriya hisobining boshqaruv tizimidagi rolini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Raqamli buxgalteriya konsepsiyasining sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar integratsiyasida samaradorlik oshdi, lekin risklar ham mavjud — zamonaviy dasturiy ta’minotlardan foydalanish buxgalteriya va moliyaviy boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Ish tezligi, aniqlik, shaffoflik va nazorat darajasi yuqori bosqichga ko‘tarildi. Biroq, shu bilan birga, yangi risklar ham paydo bo‘ldi. Jumladan, ma’lumotlar sifati, axborot xavfsizligi, kadrlar malakasi va tizimlarga haddan tashqari bog‘lanib qolish kabi muammolar mavjud. Demak, texnologiyalarni joriy etishda faqat imkoniyatlarga emas, balki ehtimoliy xavflarga ham yetarli darajada e’tibor qaratish zarur.

Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar integratsiyasi sharoitida raqamli buxgalteriya konsepsiyasida texnologik vositalar va inson nazoratining uyg‘unligi — yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirib aytish mumkinki, maqbul yondashuvlardan biri — bu texnologiya va inson omilining uyg‘unligidir. Ya’ni, zamonaviy axborot tizimlari buxgalteriya jarayonlarini tez, aniq va samarali bajarishi mumkin, ammo yakuniy professional baholash va tegishli mas’uliyat mutaxassis vakolati doirasida saqlanib qoladi. Shu sababli, kelajakda buxgalteriya hisobi rivojida nafaqat texnologik innovatsiyalar, balki inson kapitaliga sarmoya kiritish, ya’ni malakali kadrlarni tayyorlash ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Parimi S. S. Optimizing Financial Reporting and Compliance in SAP with Machine Learning Techniques. — SSRN, 2018. — 10 p. — DOI: 10.2139/ssrn.4934911.
2. Artemenkov A. I., Ganiev O. Navigating IFRS Transition in Uzbekistan: An Analytical Examination of Impairment Testing and Reversal for PP&E Assets Using an Excel-Based Algorithm. — SSRN, 2024. — 16 p. — DOI: 10.2139/ssrn.4849027.
3. Pokala P. Utilising Machine Learning to Optimise Financial Reporting and Compliance in SAP // International Journal of Research in Science & Engineering. — 2025. — Vol. 5, No. 1. — P. 14–22. — DOI: 10.55529/ijrise.51.14.22.
4. KPMG. Digitalisation in Accounting 2024/2025: Progress, Hurdles and Prospects [Elektron resurs]. — KPMG AG Wirtschaftsprüfungsgesellschaft. — URL: https://kpmg.com/de/en/insights/digital-transformation/study-digitalisation-in-accounting-2024-2025.html (murojaat sanasi: 06.09.2026).
5. PwC. Digitising Finance [Elektron resurs]. — 15 October 2021. — URL: https://www.pwc.com/gx/en/services/audit-assurance/capital-market/digitising-finance.html (murojaat sanasi: 06.09.2026).
6. Khalilov Sh. A. The Applying of IAS/IFRS in Uzbekistan // Ovidius University Annals, Economic Sciences Series. — 2014. — Vol. XIV, Issue 2. — P. 521–524. — ISSN 2393-3127. — URL: https://stec.univ-ovidius.ro/html/anale/ENG/cuprins%20rezumate/ANALE%20vol%2014%20issue_2_2014.pdf (murojaat sanasi: 06.09.2026).
7. Sargent S. Project Information Document — Uzbekistan Digital Inclusion Project (P179108). — Washington, D.C.: World Bank Group, 2023. — Report No. PIDA35333. — URL: https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099060723031518423 (murojaat sanasi: 06.09.2026).
8. Aripova A. M. International Financial Reporting Standards and Their Application in the Economy of the Republic of Uzbekistan // Multidisciplinary Journal of Science and Technology. — 2024. — Vol. 4, No. 12. — P. 344–348. — DOI: 10.5281/zenodo.14502094.
9. SAP SE. NewGL Basic Overview: Parallel Accounting and Document Splitting [Elektron resurs] // SAP Help Portal. — URL: https://help.sap.com/docs/SUPPORT_CONTENT/fiaccounting/3361880164.html (murojaat sanasi: 06.09.2026).
10. SAP SE. Financial Closing Assistant [Elektron resurs]. — 11 May 2026. — URL: https://www.sap.com/uk/use-cases/joule-assistant/financial-closing-ai (murojaat sanasi: 06.09.2026).
11. Sukharevsky A., West A., Catania C., Grande D., Tricoli A. How Finance Teams Are Putting AI to Work Today [Elektron resurs] // McKinsey & Company. — 3 November 2025. — URL: https://www.mckinsey.com/capabilities/strategy-and-corporate-finance/our-insights/how-finance-teams-are-putting-ai-to-work-today (murojaat sanasi: 06.09.2026).

12. IFRS Foundation. IFRS Accounting Standards: Issued Standards [Elektron resurs]. — London: IFRS Foundation, 2026. — URL: https://www.ifrs.org/issued-standards/search-results/?lang=en (murojaat sanasi: 06.09.2026).
13. PwC. Building the Finance Function of the Future, with PwC and SAP [Elektron resurs]. — URL: https://www.pwc.com/gx/en/services/alliances/sap/finance-transformation.html (murojaat sanasi: 06.09.2026).
14. UNCTAD. Digital Economy Report 2024: Shaping an Environmentally Sustainable and Inclusive Digital Future. — Geneva: United Nations Conference on Trade and Development, 2024. — UNCTAD/DER/2024. — URL: https://unctad.org/publication/digital-economy-report-2024 (murojaat sanasi: 06.09.2026).
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – URL: https://lex.uz/docs/-4800657 (murojaat sanasi: 08.09.2026). Hujjat raqami va sanasi Lex.uz ma’lumotlari bilan tasdiqlanadi.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – URL: https://lex.uz/docs/-5030957 (murojaat sanasi: 08.09.2026).
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. – URL: https://lex.uz/docs/-7158604 (murojaat sanasi: 08.09.2026).

TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

yilligiga bag'ishlanadi

“O‘ZBEKISTON-2030” STRATEGIYASI: GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI” FORUMI

“MOLIYA”
Ilmiy elektron jurnal
(2-maxsus son)

Manzilimiz: Tahririyat manzili: 100003, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49 uy.

Bosh muharrir:
A.A.Karimov

Bosh muharrir o‘rinbosari:
G‘.D.Tashmanov

Sahifalovchi va dizayner:
Oloviddin Sobir o‘g‘li

Texnik muharrir:
K.Rasulova

“MOLIYA” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2008-yil 24-martda 0519-raqam bilan ro‘yxatga olingan. 2025-yil 7-mayda ommaviy axborot vositasi sifatida qayta davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. guvohnoma № 758813
(litsenziya reestr raqami C-5669813);
tarqatish shakli — onlayn,
respublika miqyosida; tillari — o‘zbek, rus, ingliz.
2008-yildan nashr qilinadi, bir yilda 6 marta chiqadi. Obuna indeksi — 1204.

Manzilimiz: 100084, Toshkent sh., Amir Temur ko‘chasi, 60a-uy
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti